



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING KONSEPTUAL G'OYALARI

Shamshiddinova Muxlisa Ziyovuddin qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi 1-kurs magistranti

muxlisashamshiddinova@gmail.com

+998996370840

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi zamonaviy ta'limning eng muhim yondashuvlaridan biri – hamkorlik pedagogikasining mohiyati, shakllanishi va rivojlanish tarixi yoritilgan. Maqolada o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari, o'zaro hurmat va ishonch muhitining ahamiyati buyruqbozlikdan hamkorlikka, nazoratdan ishonchga o'tishi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida hamkorlik pedagogikasining konseptual g'oyalari, ularni amaliyotda qo'llash yo'llari ham o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *hamkorlik pedagogikasi, konseptual g'oyalar, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi, pedagogik jarayon, rag'batlantirish, gumanizatsiyalash, novator.*

Аннотация: *В данной статье раскрываются сущность, формирование и история развития одного из важнейших подходов современной системы образования — педагогики сотрудничества. В статье проанализированы партнерские отношения между учителем и учащимся, важность атмосферы взаимного уважения и доверия, переход от авторитарности к сотрудничеству, от контроля к доверию. Кроме того, рассматриваются концептуальные идеи педагогики сотрудничества в современном образовательном процессе и пути их практического применения.*

Ключевые слова: *педагогика сотрудничества, концептуальные идеи, сотрудничество учителя и учащегося, педагогический процесс, стимулирование, гуманизация, новатор.*

Abstract: *This article highlights the essence, formation, and historical development of one of the most significant approaches in modern education — collaborative pedagogy. The article analyzes the cooperative relationship between teacher and student, the importance of an atmosphere of mutual respect and trust, and the shift from authoritarianism to collaboration and from control to trust. Additionally, the conceptual ideas of collaborative pedagogy in the contemporary educational process and practical ways to implement them are examined.*

Keywords: *collaborative pedagogy, conceptual ideas, teacher–student collaboration, educational process, motivation, humanization, innovator.*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilanganidek, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.³⁰ Shu nuqtai nazardan qaraganda, an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda, o'quvchi faoliyatini markazga qo'yadigan, o'zaro muloqot va hamkorlikka asoslangan pedagogik uslublarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish zaruratga aylandi. Hamkorlik pedagogikasi – bu o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida hamda o'quvchilarning o'zaro teng huquqli muloqoti va faol hamkorligiga asoslangan ta'lim shaklidir. U ta'lim jarayonida bilim olishni bir tomonlama emas, balki o'zaro almashuvga asoslangan ikki tomonlama jarayon sifatida qaraydi.

Hamkorlik pedagogikasining mohiyati – o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi ta'lim jarayonida teng huquqli ishtirok etishi, o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan o'zaro ta'sirga kirishishidir. U o'quvchini shaxs sifatida hurmat qilish, uning mustaqilligini, ijodkorligini rag'batlantirish hamda o'quvchiga o'z bilimi va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratishni nazarda tutadi.

Hamkorlik pedagogikasi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

-O'zaro hurmat: O'qituvchi o'quvchiga ham, o'quvchi o'qituvchiga ham nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'ladi.

-Teng huquqlilik: Ikki tomon ham ta'lim jarayonida teng huquqli ishtirokchi hisoblanadi.

-Erkinlik va ijodiylik: O'quvchilar o'z fikrlarini erkin bildirishga va ijodiy yondashishga undaladi.

-Rag'batlantirish: O'quvchining mustaqilligi va bilimini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratiladi.

-Birgalikdagi faoliyat: Ta'lim jarayoni bir-biriga bog'liq va birgalikdagi faoliyatga asoslangan bo'ladi.

Hamkorlik pedagogikasining asosiy g'oyalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- bolani yaqin rivojlanish zonasida o'qitish:

- majburlamasdan o'qitish:

- tayanch so'zlar, sxemalar, belgilar asosida o'qitish:

- ilgarilab ketish g'oyasi:

- yirik bloklar g'oyasi:

- erkin tanlash g'oyasi:

- dialogik fikrlash g'oyasi:

- sinfning intellektual muhiti g'oyasi:

- o'quvchi va o'qituvchilarning hamkorlikdagi faoliyati g'oyasi:

- bo'sh vaqtdagi faoliyatning ixtiyoriyligi g'oyasi.

Hamkorlik pedagogikasi g'oyasi ilk bor D.Dyui tomonidan XX asrning 20 yillarida ilgari surilgan.³¹ Lekin ushbu pedagogikaning metodik tavsifi 70- yillarning oxiri, 80- yillarning

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

³¹ Johnson, D. W., Johnson, R. T. (1994). Cooperative Learning in the Classroom. Association for Supervision and



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



boshlarida dunyoning turli mamlakatlarida Rossiya, Buyuk Britaniya, Kanada, G'arbiy Germaniya, Avstriya, Gollandiya, Yaponiya, va Isroilda matbuotda e'lon qilingan.

K.D. Ushinskiy, N.P.Pirogov, L.N.Tolstoy, S.T.Spatskiy, V.A.Suxomlinskiy, A.S.Makarenko, J.J.Russo, Ya.Korchak, K.Rodjers, E.Bernlarning pedagogik nazariyalarida ham hamkorlik pedagogikasining turli jihatlarini ko'rish mumkin. Bu yo'nalish vakillari ta'limtarbiyaga turlicha qarashda bo'lsalarda ularning asosiy maqsadlari ta'lim tizimini "gumanizatsiyalash (insonparvarlashtirish)dan" iborat edi. Hamkorlik pedagogikasi g'oyasining asoschilaridan biri Simon Lvovich Soloveychikning tadqiqotlarida tarbiya masalasiga yangicha yondashuv ko'zga tashlanib, tarbiya bolaga tarbiyachining qandaydir ta'siri sifatida emas, balki, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ochiq munosabat sifatida ifodalana boshlanadi. Hamkorlik pedagogikasi g'oyalari Amonashvili Shalva Aleksandrovich, Shatalov Viktor Fedorovich, Lisenkova Sofya Nikolayevna va boshqalar nazariyalarida ham namoyon bo'ldi.

Pedagog – novatorlarning ilk yig'ilishi 1986 yil oktyabr oyida Moskva yaqinidagi

Peredelkina posyolkasida bo'lib o'tdi. Uchrashuv natijasida "Hamkorlik pedagogikasi tezislari" 1986 yil 18-oktyabrda "Uchitelskaya" gazetada e'lon qilindi. Ularning ikkinchi uchrashuvi 1987 yil Gruziyada bo'lib o'tdi. Ushbu uchrashuvda "Ta'limni demokratizatsiyalashtirishning yo'llari va yo'nalishlari" belgilab olindi. Uning natijasida "Shaxsni demokratizatsiyalashtirish" mavzusida

tezislar "Uchitelskaya" gazetada e'lon qilindi. Hamkorlik pedagogikasining asosiy g'oyalari keyinchalik Amerikalik olimlar Djorj Aronson (1978), Rodjers va Devid Djonsonlar (1987) Robert Slavin, (1990), hamda Isroillik olim Shlomo Sharan (1988) tomonidan taklif qilingan va uslubiy jihatdan tavsiflangan.

Hamkorlik faoliyatlarini biz yana xorijlik olimlarning tadqiqotlarida "hamkorlik" va "raqobat" o'quvchilarning faoliyati maqsadi sifatida e'tirof etilganligini ham ko'rishimiz mumkin.

D.B.Millerning qayd etishicha, hamkorlik vaziyatida umumiy maqsad mavjud bo'lib, guruhlariga taqsimlangan o'quvchilarning hammasiga vazifalar bo'lib beriladi, raqobat vaziyatida guruhning har bir a'zosi yaxlit tarzda qo'yilgan maqsadga individual erishi shi talab etiladi. ³² M.A.Mey, L.U.Duba ham hamkorlik jarayonida uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlangan birgalikdagi

umumiy maqsadning mavjudligi va ular o'rtasida do'stona munosabatlarning qaror topishini qayd etib o'tishadi. ³³

Xorijiy tadqiqotlarda hamkorlikda o'qitishning guruhliy shaklining imkoniyatlarini ochib berishga alohida ahamiyat qaratilgan. Jumladan, D.V.Jonson, R.T.Jonsonlar o'quvchilarning individual o'quv-bilish faoliyatini kichik guruhlardagi birgalikda ishlash bilan

³² Maller J. B. Co-operation and Competition: An Experimental Study in Motivation. – Teach. Coll., 1929.

³³ May M. A., Doob L. W. Competition and Cooperation. – New York: Social Science Research Council, 1997.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



uyg'unlashtirishni taklif etishgan. ³⁴ D.de Friz (D. DeVries) va K.Edwards (K. Edwards) ³⁵o'quv-bilish faoliyatidagi o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishning guruhliy shaklini tashkil etishning o'yin usullarini bayon etishgan. E.Aronsonning g'oyalariga muvofiq o'quv-bilish faoliyatida o'quvchilarning hamkorligini rivojlantirish jarayonida ularning guruhdagi o'zaro harakatini tashkil etish har bir ishtirokchining dastlab umumiy topshiriqning ma'lum bir qismi ustida ishlashi, o'rganilgan materialni bir-biriga tushuntirishi va guruhning boshqa ishtirokchilariga topshiriqdagi o'z ulushini bajarishiga yordam berishi, nihoyasida o'quvchilarning qo'yilgan maqsadga erishishiga imkon berishi talab etiladi.

Pedagogik hamkorlik ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatida yangicha sifat o'zgarishlarining shakllanishi va namoyon bo'lishiga ko'maklashadi. Pedagogik hamkorlikning muhim jihati shundaki, u ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatini muayyan tarzda uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Pedagogik hamkorlik jarayonida o'qituvchi bilan talaba (o'quvchi) faoliyati uyg'unlashadi, ijodiy xarakter kasb etadiki, u ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatidagi o'ziga xos har bir jihatni hisobga olishni taqozo qiladi. "O'qituvchi-o'quvchi" munosabatlaridagi hamkorlik, bu faoliyatning borishi va natijalarining birgalikdagi tahlili, ma'naviy dunyoda bir-biriga samimiylik, o'zaro bir-birini mustahkam tushunish, kattalar va bolalarning hamkorlikdagi rivojlantiruvchi faoliyati g'oyasi asosida tashkil etiladi. An'anaviy ta'limdagi pedagogic jarayonda o'qituvchining subyekt, o'quvchini esa obyekt sifatida ishtiroki o'zgarib, talabao'quvchi faoliyatning subyekt sifatida ishtirok etadi. "O'qituvchi-o'quvchi" munosabatlari hamkorlikning birga qatnashish, birga qayg'urish, birga ijod qilish, birgalikda boshqarish)da qabul qilingan kabi turlarida amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. DeVries D., Edwards K. Learning games and student teams: Their effects on classroom process // American Educational Research Journal. – 1993. – №10. – S. 307–318.
2. Kostenko Yu. K. Formirovanie navykov produktivnogo sotrudnichestva starsheklassnikov vo vneurochnoy deyatel'nosti: avtoref. diss. ... kand. ped. nauk. – Saratov, 2018. – 24 s.
3. Maller J. B. Co-operation and Competition: An Experimental Study in Motivation. – Teach. Coll., 1929.
4. May M. A., Doob L. W. Competition and Cooperation. – New York: Social Science Research Council, 1997.

³⁴ Kostenko Yu. K. Formirovanie navykov produktivnogo sotrudnichestva starsheklassnikov vo vneurochnoy deyatel'nosti: avtoref. diss. ... kand. ped. nauk. – Saratov, 2018. – 24 s.

³⁵ DeVries D., Edwards K. Learning games and student teams: Their effects on classroom process // American Educational Research Journal. – 1993. – №10. – S. 307–318.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



5. Johnson, D. W., Johnson, R. T. (1994). Cooperative Learning in the Classroom. Association for Supervision and Curriculum Development.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

